O‘ZBEK ADABIYOTIDA HAJVIYA. MAXMUR HAJVIYALARI

Ziyodova Mohinur Ziyod qizi

SamDU Markaziy Osiyo xalqlari va tillarini o‘qitish insituti Adabiyotshunoslk, o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi I kurs magistri Ziyodovamohinur28@qmail.com

+998885240424

Ilmiy rahbari: PhD, Dotsent Mashhura Hasanova

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbek adabiyotida hajviya va Maxmurning ba’zi hajviyasi bilan tanishib tahlil qilamiz. Yirik satirik hajv ustasining o‘ziga xos jihatlari, hajv yaratish san’ati va ularning ma’no-mohiyatiga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: yumor, satira, nuqson, individual uslub, hajviya obyekti, hajviy lirika.

Abstract: This article analyzes The history of satire in Uzbek literature and Maxmur's high level of mastery in satire, focusing on his satirical poems. Attention is given to the writer's unique style.

Keywords: humor, satire,flaw, indivual style, object of satire, satirical poema.

Adabiyot bir daraxt bo‘lsa, uning shoxlari janrlardir, ana shu janrlar bilan daraxt bir butun bo‘ladi. Shunday adabiyotning bir janri bo‘lgan hajviya va uning adabiyotimizdagi o‘rni kattadir. Hajv kulgu orqali tanqid qilish san’ati, qadimdan adabiyotda jamiyatdagi kirdikorlarni ochib berish, kishilarning fe’l-atvoridagi salbiy jihatlarni bildirish uchun foydalangan. Hajv so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib “masxara qilish”, “tanqid qilish” ma’nolarini beradi. Hajv orqali yozuvchi yoki shoir voqeani tasvirlash bilan birga uni baholaydi, o‘z pozetsiyasini bildiradi. Hajviy obrazlar talqini, uning davr muammolarini o‘zida tashish xususiyati, ijtimoiy borliqdagi munosabatlarni o‘zida jamlay olish xususiyatini bildirish bilan

ahamiyatga molikdir.

Hajviya jamiyatdagi salbiy jihatlarni kulgi orqali fosh etib, ularni tanqid qilishga xizmat qiluvchi kuchli adabiy quroldir. Hajv o‘z navbatida ikki turga ajraladi: satira va yumor. Ammo, ushbu o‘rinda ba’zi fikr-mukohazalarni ham keltirib o‘tish zarur. Hajviya va uning tarixi tabiati va rivojlanish borasida aniq ma’lumotlar va yetarli man balar mavjud emas. Biz bu holni yumor va satira orasidagi farqni tugal holda ajratilmaganidan ham bilishimiz mumkin. Satira bu-inson fe’l atvoridagi nuqsonlar, jamiyatdagi illatlarni keskin kulgi, istehzo, hajv orqali tanqid qiluvchi shaklidir. Satira ko‘p hollarda kulguning achchiq shakli hisoblanadi ya’ni kulgu orqali kuchli tanqid yashringan bo‘ladi. Satiraning maqsadi kulguning o‘zi emas, asosan, o‘quvchini o‘ylantirish, muammoga e’tibor qaratish, umuman olganda, tanqid qilish orqali isloh qilishdir. Yumor-bu biror hodisa, obraz yoki so‘zdagi kulgili jihatlarni ijobiy, quvnoq va iliq kayfiyatda tasvirlash san’atidir. Hajviyaning yumor turida yozilgan asarlarda kulgi muhabbat va mehr bilan aralashib boradi va uning asosiy maqsadi insonlarga tabassum ulashish, zavqlantirish va shu bilan birga saboq berish vazifasini bajaradi. Quyida ushbu turlarning o‘ziga xos xususiyatlari jadval bilan ifodalaniladi.

Toshkanov S. Hajv tig‘i. // Sadoyi Turkiston. 1914-yil. № 7.

Saitov S. Jahon va o‘zbek adabiyotida hajviy tip yaratish muammosi. // Ta’lim va rivojlantirish tahlili onlayn ilmiy jurnali. 2024. – B. 142.

TURLARI	SATIRA	YUMOR
Maqsad	Tanqid qilish, jamiyatdagi illatlarni fosh etish	Kuldirish, quvnoqlik, yaxshi kayfiyat berish
Uslub	Achchiq, iztehzo	Muloyim, ijobiy
Tuzilishi	o‘tkir tanqid bilan yakunlanadi	Ijobiy kayfiyat bilan yakunlanadi

Hajviya janrining ildizlari o‘zbek adabiyotida qadim davrlarga borib taqaladi. Hajviyaning xalq og‘zaki ijodiga yorqin namuna qilib “Alpomish” dostonini keltirishimiz mumkin. Ushbu doston yaratilganiga 1000 yillardan oshdi ammo biz tadqiq qiladigan hajviyaning namunalari bu dostonda ham ko‘plab uchraydi. Misol uchun “Alpomish” dostoning Ergash Jumanbulbul o‘g‘li tilidan yozib olgan nusxasida Surxayl kampirning o‘g‘illaridan biriga shunday ta’rif beriladi:

Qo‘shquloq degan alp maydonga kirdi.

...Qorajonning bir akasi bo‘ladi,

Taraf bo‘p Qo‘shquloq polvon jo‘nadi.

Yana ham bir qalmoq kirdi maydonga:

Odam tushmas buning aytgan tiliga,

Besh yuz quloch arqon yetmas beliga.

Bul qalmoqdir qalmoqlarning ravishi,

Oh ursa, olamni buzar dovushi.

To‘qson molning terisidan kovushi.

Hajviya janrida barakali ijod qilgan va o‘z ijodi bilan o‘zbek satirasida yuksak o‘rin egallagan Maxmur o‘z hajviyalari bilan ushbu janrlar takomilda muhim poydevordir. XVIII asrda ijod qilgan asli Farg‘onalik ijodkor satira yo‘nalishini ijtimoiy -siyosiy vaziyat bilan uyg‘unlashtirib ifoda etdi. Davr kishilari, mansabdorlarni umumlashma obrazlar orqali achchiq kulgi ostiga oldi. Maxmur o‘ziga xos hajviy..... Baytli .... misrali sayohatnoma yozganligi haqida olim..... fikr bildiradi. O‘ziga xos qobiliyat va mahorat egasi bo‘lgan Maxmur Qo‘qon shoxi bo‘lgan Umir Umarxonga bag‘ishlab yozgan asarlarini ham uchratamiz. Uning shunday misralari

borki unda tanqid qilinadigan mavzu va shaxslar boricha ayovsiz hajv ostiga olinadi. Misol sifatida uning Qozi Muhammad Rajabni tanqid qilgan hajviyasi uslubi jihatidan, hajv yomg‘irining to‘xtovsizligi bilan ajralib turadi. Shoirning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, ijobiy mavzudagi asarni ham osongina hajvga aylantira oladi. Shu o‘rinda ustoz Ozod Sharafiddinovning mana bu fikrlari naqadar haqiqat ekanligi yorqinroq anglashiladi. "Hajvga, kulgiga moyillik unga tashqaridan yopishgan yoki hayotiy tajriba orqali ortirilgan bisot emas, tug‘ma xislatdir”. Yuqorida Maxmur ijodi va o‘ziga xosliklari haqida keltirilgan fikrlarimizga uning misralari orqali ifodalanadi:

So’fi qozi Muhammad Rajab avj

Ajab qoziy, kohili, johili,

Bo‘lib omilik ilmiga komili.

Ushbu misralardan anglashidiki zaminga qoziman deya da’vo qilgan aslida eng johil inson, qozi kishi adolat va ilm egasining sifati bo‘lsa-da bu yerda omilik asli hajvdagi qozining ilmi ekanligini. shoir ifoda etadi.

Adamdir alif anda ko‘p izlama,

Bu nar harni qozi debon sizlama.

Qozi deya uni hurmat qilguvchi aholiga va shaxslarga qarata uni e’zozlashga, hurmat ko‘rsatishga hamda undan biror bir yaxshi hislatni izlash befoyda ekanligiga urg‘u beriladi. Quyida keltirilgan misralarga diqqat qaratsak:

Dami gar buzulsa bu dastori zor,

Tuzatmoqqa solgay anga mardikor.

Jahon ichra bu qoziy devrang,

Erur mazhabu millati regrang.

Yuqorida keltirilgan misralardan ham anglashadiki, bu faqat Shu Muhammad Rajab qozini hajv qilgan g‘azal emas, balki ushbu obraz umumlashma bo‘lib o‘sha davrdagi barcha qozilarning sifatlilari ekanligi ochiqlanadi. Biz ushbu davr hajviyasi haqida gapirganda, albatta, Maxmur hajviyasi uning o‘ziga xosligi va qobilyatini o‘rinli ravishda madh etamiz. Uning Amir Sultonga bag‘ishlab yozgan masnaviy va g‘azallari ham uning shaxsiyati, shaxsiy uslubibva jamiyat bilan qay darajada yaqinlik hosil qilib singishi ketganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ey jahongiri dinu-dunyo ham,

Dar davri ro‘zgorash on qohiri yagona,

Arz etar xokisor Maxmuring,

Banda zodi zalili mahjuring.

Bu amirni din-dunyoda olimlik erishgan haqiqiy hukmdor sifatida qanchalik yuksaklarga ko‘tarsa undan avval vafot etgan Amir Umarxon zolimlikni tengi yo‘q kimsa sifatida ko‘rsatiladi:

Shohe ki xislati u ma’ruf bud, ma’lum,

Sangdon z-haybati u megasht ob chun mum.

Amir Umarxon zolimlikda tengi yo‘q, hatto tosh uni ko‘rsa mumdek eriydigan qullarga katta martabalar berib haqiqiy ziyolilarni zindonga solgan adolatsiz hukmdor sifatida tasvirlaydi

Nogoh qahri Yazdon gardid musallati u,

Yakbora soxt uro az mulku joh mahrum.

Ta’rikhi qatl uro pursidam az xirad, guft:

Dar rohi mulki Qo‘qand sardod miri mazlum.

(Uning o‘ldirilishining tarixini aqldan so‘radim, u aytdi:

Xo‘qand yo‘lida mazlumlar amiri boshidan ayrildi.)1

Uning bu bad hislatlari sabob Alloh qahriga uchragan va birdan mol-u mulkidan ayrilib Qo‘qon yaqinida o‘q yeb vafot etganini bayon qiladi

Maxmur o‘z davrining buyuk hajviyachisi bo‘lib hajviyani yuksak darajada ko‘taradi. Uning ijodida o‘zining holini bayon qilish uslubi ochiqcha shaklda bayon etiladi. Zamon insonlaridan adolatsiz qozi va mansabdorlarni o‘z hajv tig‘i bilan jazolaydi. Uning satira kuchi har bir misrasida ifodalanadi va zamon muhiti va Maxmurning munosabati ochiq akslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Aziz Qayumov. 1950. Maxmur

Toshkanov S. Hajv tig‘i. // Sadoyi Turkiston. 1914-yil. № 7.

Saitov S. Jahon va o‘zbek adabiyotida hajviy tip yaratish muammosi. // Ta’lim va rivojlantirish tahlili onlayn ilmiy jurnali. 2024. – B. 142.

Yo‘ldoshev Q., va boshqalar. 9-sinf uchun darslik-majmua. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2019. – B. 52.